



## KORXONALARDA SHOVQIN DARAJASI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

**Sultanov Asadbek**

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti GM fakulteti  
MMTX yo'nalishi 1-kurs talabasi  
[muha.erm2007@gmail.com](mailto:muha.erm2007@gmail.com)*

**Sultanov Oybek**

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti YRK fakulteti  
Yer tuzish va yer kadastrisi yo'nalishi 2-kurs talabasi  
[soybek310@gmail.com](mailto:soybek310@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada korxonalaridagi shovqin darajasini kamaytirish bo'yicha texnik va tashkiliy choralar, jumladan, tovushni yutuvchi materiallardan foydalanish, himoya vositalarini qo'llash hamda ish joylarini akustik jihatdan izolyatsiya qilish kabi yechimlar keltirilgan. Hamda shovqinning ishchilarning salomatligiga: yurak qon tomir va asab tizimlariga ta'siri yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *shovqin, inson salomatligi, korxonalar, akustik muhit, himoya vositalari, asab tizimi, izolyatsiya.*

### NOISE LEVELS IN ENTERPRISES AND ITS IMPACT ON HUMAN HEALTH

**Annotation.** *This article presents technical and organizational measures to reduce noise levels in enterprises, including the use of sound-absorbing materials, protective equipment, and acoustic insulation of workplaces. It also discusses the effects of noise on workers' health: the cardiovascular and nervous systems.*

**Keywords:** *noise, human health, enterprise, acoustic environment, protective equipment, nervous system, insulation.*

### УРОВЕНЬ ШУМА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация.** *В статье представлены технические и организационные мероприятия по снижению уровня шума на предприятиях, включающие применение звукопоглощающих материалов, средств индивидуальной защиты и звукоизоляцию рабочих мест. Также рассматривается влияние шума на здоровье работающих: сердечно-сосудистую и нервную системы.*

**Ключевые слова:** *шум, здоровье человека, предприятие, акустическая среда, средства защиты, нервная система, изоляция.*

## KIRISH

Hozirgi zamonda texnika taraqqiyoti davrida sanoat korxonalarida shovqinga qarshi kurash masalalari muhim masalalar qatoriga kiradi. Bu asosan mashinasozlikda sanoatda transport vositalarini ishlatishda va ergetika sanoatida juda jiddiy masala bo'lib turibdi.

Insonni doimiy yuqori intensivlikdagi shovqin ta'sirida bo'lishi uning sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Katta shovqin ta'sirida insonning asab sistemalari zirqillaydi, eshitish organining faoliyati susayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham sanoat korxonalarida shovqinni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, inson salomatligini saqlashiga yordam beradi. [5]

**Muammoning qo'yilishi:** Shovqin darajasi baland bo'lgan korxonalarda shovqinni kamaytirish choralarini ko'rish.

**Tadqiqot uslubi:** Shovqin darajasini aniqlash va tovushni yutuvchi vositalarni qo'llash.

**Natijalar:** Hozirgi kunda Toshkent shahrida 105593 ta korxonalar va tashkilot faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu korxonalarda shovqin darajasi 30 dB dan 150dB gacha.

Hech qanday zarar yetkazmaydi, bu tabiiy va xavfsiz daraja	0-20 dB
Ruhiy tinchlikni buzmaydi, ammo uzoq muddatda diqqatni pasaytirishi mumkin	30-40 dB
Ish unumdorligini biroz kamaytiradi, asabiylik va charchoq paydo bo'ladi	50-60 dB
Yurak urish tezlashadi, qon bosimi oshishi mumkin	70 dB
Eshitish qobiliyatiga asta-sekin zarar yetkazadi, bosh og'rig'i va uyqusizlik yuz beradi	80-85 dB
Quloqda shovqin (jiringlash), eshitish sezgirligi pasayadi, stress oshadi	90 dB
Quloq pardasiga jiddiy bosim, doimiy eshitish yo'qotilishi xavfi paydo bo'ladi	100-110 dB
Og'riq seziladi, eshitish asboblari doimiy zarar yetadi	120 dB
Quloq pardasi yorilishi, yurak urishining buzilishi mumkin	130-140 dB
Miya faoliyati va ichki organlarga zarar yetkazadi, hayot uchun xavfli	150 dB va yuqori [1]

Shovqin deb, bir nechta tovushlarning yig'indisidan iborat, kuchi va chastotasi bilan turli xilga bo'linib vaqt birligi ichida tartibsiz o'zgarib turuvchi hodisaga aytiladi. [2]

Shovqinni oldini olish chora va tadbirlari: Shovqinni ajralib chiqayotgan manbayida kamaytirish, shovqinning tarqalish yo'nalishini o'zgartirish, sanoat korxonalarini va sexlarini

oqilona planlashtirish, sanoat korxonalariga akustik ishlov berish, shovqinni tarqalish yo'lida kamaytirish.

Agar ushbu choralar qo'llanilsa, lekin shovqin darajasi pasaymasa, shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniladi. [3] Masalan: Vkladishlar, quloqchinlar, shlemlar. [4]

Vkladishlar eng arzon va ishlatishga qulay vositalar hisoblanadi. Uning samaradorligi oz, yani 5-20 dB gacha tovushlarni kamaytira oladi.

Quloqchinlar samaradorligi 7-38 dB atrofida bo'ladi. Quloqchinlar past chastotadagi tovushlarga nisbatan yuqori chastotadagi shovqinlardan yaxshi muhofaza qiladi.

Shlemlar haddan tashqari katta shovqin sharoitida, yani 120 dB dan ortiq shovqinlarda qo'llaniladi. [3]

Mutaxassislar fikricha, inson uchun qulay akustik muhit darajasi 40-50 dB atrofida bo'lishi lozim. Shu sababli sanoat korxonalarida shovqinni kamaytiruvchi texnologiyalar, tovush yutuvchi devor materiallari va himoya quloqchinlaridan foydalanish muhimdir.

Sog'liqni saqlash bo'yicha Jahon tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, doimiy shovqin ta'siri natijasida insonlarda asabiylik, uyqusizlik va stress holatlari kuchayadi, yurak urish tezligi va qon bosimi oshadi, ish unumdorligi 20-30% gacha kamayadi, uzoq muddatli ta'sirda eshitish qobiliyati yo'qolishi mumkin.

#### **XULOSA**

Korxonalarda shovqin darajasi yuqori bo'ladi. Shuning uchun shovqin darajasini kamaytirish bo'yicha texnik va tashkiliy choralar qo'llanilishi kerak. Aks holda ishchilar salomatligiga katta zarar yetkazadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://www.who.int>
2. H.E.G'oyipov "Hayot faoliyati xavfsizligi fuqaro muhofazasi"
3. G'.Y.Yormatov, O.R.Yuldashev, A.L.Hamrayeva "Hayot faoliyati xavfsizligi" Toshkent — 2009.
4. H.X.Razzoqov, SH.A.Mamasov "Hayot faoliyati xavfsizligi" O'quv qo'llanma -. T; "Fan va texnologiya", 2019.